

Qoqigul va tog'rayhon o'simliklarining shifobaxshlik xususiyatlari

Jaloliddin Jamoliddin-o'g'li Raxmatov

rakhmatovjaloliddin@gmail.com

Husniya Yulduzbek-qizi Mamasukurova

h_mamashukurova@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Biokimyo instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qoqigul va tog'rayhon o'simliklarining dorivorlik ahamiyati tarixiy va zamonaviy farmatsiya manbalari asosida tahlil qilingan. Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniyning fitoterapiyaga oid qarashlari o'rganilib, ularning hozirgi farmakologiya fanidagi dolzarbligi yoritilgan. Maqolada sabzavot va dorivor o'simliklarining biologik faol moddalarga, vitaminlarga boyligi, shuningdek ularning kasalliklarni oldini olish va davolashdagi imkoniyatlari asoslab berilgan. Qoqigul va tog'rayhon misolida an'anaviy tabobat bilan ilmiy tibbiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: sabzavot va poliz o'simliklari, dorivor o'simliklar, farmakologiya, Sharq tabobati, biologik faol moddalar, fitoterapiya

Medicinal properties of primrose and motherwort plants

Jaloliddin Jamoliddin-o'g'li Rakhmatov

rakhmatovjaloliddin@gmail.com

Husniya Yulduzbek-qizi Mamasukurova

h_mamasukurova@gmail.com

Biochemistry Institute, Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Abstract: This article analyzes the medicinal significance of primrose and motherwort based on historical and modern pharmaceutical sources. The phytotherapeutic views of Abu Ali ibn Sina (Avicenna) and Abu Rayhan al-Biruni are examined, and their relevance to contemporary pharmacological science is highlighted. The article substantiates that vegetable and medicinal plants are rich in biologically active compounds and vitamins, as well as their potential in the prevention and treatment of diseases. Using primrose and motherwort as examples, the close interconnection between traditional medicine and scientific healthcare is demonstrated.

Keywords: vegetables and garden plants, medicinal plants, pharmacology, Eastern medicine, biologically active compounds, phytotherapy

Farmatsiya fanining rivojlanishida tabiiy dorivor manbalarni o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida tibbiyot va dorishunoslik fanlari yuksak darajada rivojlangan bo'lib, bu jarayonda Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarning ilmiy merosi alohida o'rin tutadi. Ularning asarlarida o'simlikni kelib chiqishi, dorivorligi, jumladan sabzavot va dorivor o'simliklarining shifobaxsh xususiyatlari tizimli ravishda yoritilgan [1], [2].

Abu Ali ibn Sino tomonidan yaratilgan "Tib qonunlari" asari tibbiyot va farmakologiya fanining klassik manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu asarda 800 dan ortiq oddiy dori vositalari bayon etilgan bo'lib, ularning katta qismi o'simliklarni kelib chiqishiga mansubdir [1]. Asarning beshinchi kitobida murakkab dori vositalarini tayyorlash va qo'llash texnologiyasi keng yoritilgan. Ibn Sino dori vositalarini bemorning individual xususiyatlariga mos holda qo'llashni tavsiya etgan va ularni ta'siriga ko'ra isituvchi, sovituvchi, qurituvchi hamda namlovchi guruhlariga ajratgan. Bu yondashuv hozirgi zamon farmakoterapiyasining shaxsga yo'naltirilgan tamoyillariga mos keladi.

Abu Rayhon Beruniyning "Saydana" asari esa Sharq dorishunosligining nodir ensiklopediyasi hisoblanadi. Unda minglab dorivor o'simliklar, hayvon va mineral kelib chiqishidagi moddalarning nomlari hamda qo'llanish xususiyatlari keltirilgan [2]. Abu Rayhon Beruniy dori vositalarini oziq-ovqat va zahar o'rtasidagi muvozanatli modda sifatida baholagan.

Sabzavot va dorivor o'simliklar asosan bir yillik va ko'p yillik o'tsimon o'simliklardan iborat bo'lib, ularning 1200 dan ortiq turlari mavjud [8]. O'zbekiston hududida karam, sabzi, piyoz, sarimsoq, lavlagi, qovun, qovoq, qalampir kabi ko'plab sabzavot, poliz mahsulotlari yetishtiriladi va quruq va toshli tuproqda, o'tloqlarda, tog' yonbag'irlarida dorivor o'simliklar o'sadi. Mazkur o'simliklar tarkibida vitaminlar, mineral tuzlar, organik kislotalar va boshqa biologik faol birikmalar mavjud bo'lib, ular inson organizmi uchun muhim hisoblanadi. Ayniqsa, A, B, S va D vitaminlari sabzavot mahsulotlarida keng tarqalgan [8]. Ushbu vitaminlar immun tizimi, asab tizimi va suyak to'qimalari faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Abu Ali Ibn Sino sabzavotlarni muntazam iste'mol qilishni sog'lom turmush tarzining muhim tarkibiy qismi sifatida baholagan [1].

Masalan, quruq va toshli tuproqda o'sadigan "qoqigul" o'simligi ko'p dorivor xususiyatlarga ega, Qoqigul (*Primula veris* L.) xalq tabobatida keng qo'llaniladigan dorivor o'simliklardan biridir. (1-2 rasm).

Qoqigul (*Primula veris* L.) - bahorda ochadigan, sariq gullari va markazidagi dog'lari bilan ajralib turuvchi ko'p yillik o'simlik bo'lib, Yevropa va Osiyo hududlarida dorivor, dekorativ va oziq-ovqat maqsadlarida keng qo'llaniladi. Barglari rozetka hosil qilib joylashgan, gullari mayda tuzilishga ega va yoqimli hidga ega. Zontik shaklidagi gullari heteromorfizmni namoyon etadi, ildiz va gullari turli dorivor

preparatlar tarkibida ishlatiladi, noyob reproduktiv tizimi esa ekologik tadqiqotlarda, xususan Charles Darwin tomonidan o'rganilgan. Shu sababli qoqigul bahorning ramzi sifatida, ko'p shaklli gullari, yoqimli hidi va ko'p qirrali qo'llanilishi bilan ajralib turadi.



1-rasm. Botanika illyustratsiyasi O.V.Tome
"Flora von Deutschland, Osterreich und der
Schweiz", 1885 yil kitobidan.



2-rasm. Quruq va toshli tuproqda o'sadigan
qoqigul o'simligining tashqi ko'rinishi.

Abu Ali ibn Sino ushbu o'simlikdan tayyorlangan vositalarni ko'rish qobiliyatini yaxshilash va jigar faoliyatini qo'llab-quvvatlashda foydali deb hisoblagan [1]. Zamonaviy manbalarda qoqigul ildizi va barglarining yallig'lanishga qarshi xususiyatlari qayd etilgan [3], [4].

O'tloqlarda, tog' yonbag'irlarida o'sadigan to'g'rayhon (*Leonurus cardiaca* L.) esa yurak va asab tizimi faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan dorivor o'simlik sifatida tanilgan.(3-4 rasm).



3-rasm. To'g'rayhon (*Leonurus cardiac* L.). Yakob
Shturm chizgan botanika tasviri, "Deutschlands
Flora in Abbildungen" kitobidan, 1796 yil.



4-rasm. O'tloqlarda, tog' yonbag'irlarida
o'sadigan tog'rayhon o'simligining tashqi
ko'rinishi

To'g'rayhonning barglari va gullari an'anaviy tibbiyotda turli maqsadlarda foyda beradi. Xalq tabobatida to'g'rayhon antibakterial xususiyatga ega bo'lib, shamollash, bronxit va astma kabi nafas yo'llari kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Uning hidi burun sezgirligini oshirishga va nafas yo'llarini tozalashga xizmat qiladi.

To'g'rayhon O'rta Osiyo va Kavkaz oshxonalarida keng qo'llaniladigan aromatik o'simlikdir. U o'zining yoqimli hidi bilan ajralib turadi. Bu o'simlik oshpazlikda polov, sho'rva, salat va go'shtli taomlarga ta'm berish uchun ishlatiladi. To'g'rayhon nafaqat taomlarga lazzat qo'shadi, balki sog'liqni mustahkamlashda ham foydali o'simlik sifatida qadrlanadi.

To'g'rayhonni Abu Ali ibn Sino bosh og'rig'i, shish va shamollash bilan bog'liq holatlarda qo'llashni tavsiya etgan [1]. Hozirgi kunda to'g'rayhon preparatlari tinchlantiruvchi va yurak faoliyatini me'yorlashtiruvchi vosita sifatida ishlatiladi [5], [6].

Xulosa qilib aytganda Sharq tabobati allomalari tomonidan yaratilgan ilmiy meros sabzavot va dorivor o'simliklarning farmatsevtik ahamiyati muhim hisoblanadi va ularni chuqur o'rganishga imkon beradi. Sabzavot va dorivor o'simliklar biologik faol moddalarga boy bo'lib, ularni dorivor xomashyo sifatida qo'llash farmatsiya amaliyotida muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda farmatsiya ta'limida sabzavot va dorivor o'simliklar asosida fitoterapiya mashg'ulotlarini kengaytirish, xalq tabobati tajribalarini zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan uyg'unlashtirish hamda dorivor o'simliklardan foydalanishda ratsional va xavfsiz yondashuvlarni joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Toshkent. Fan. 1982.
2. Abu Rayhon Beruniy. Saydana. Toshkent. Fan. 1973.
3. X.X. Xolmatov, Z.X. Habibov. O'zbekiston shifobaxsh o'simliklari. Toshkent. Meditsina. 1976.
4. R. Sobirov, X. Xolmatov. Xorazm viloyatining dorivor o'simliklari. Toshkent. Meditsina. 1972.
5. Нуралиев Ю. Лекарственные растения. — Душанбе. Маориф. 1989.
6. Хайдаров К. Лечебные растения Таджикистана. — Душанбе. Ирфон, 1989.
7. M. Nabiev. Shifobaxsh giyohlar. Toshkent. Fan. 1980.
8. M. Nabiev. Sabzavot, rezavor mevalar va ziravorlar xossalari. Toshkent. Mehnat. 1990.